



TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021 - yil 1 - noyabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Korxonalar va tashkilotlar soni


(2021 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - noyabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2021 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar - oktabr oylarida, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar - oktabr oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,5 %** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar





Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



12,2 % foizga oshdi



8,7 % foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan

8,1 % foizga oshdi



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan

1,7 % foizga pasaydi




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,1 %** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




16,9 % foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




19,1 % foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




6,2 % foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **13,3 %** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **1,3 %** foizga pasaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,1%** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




22,2 % foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




26,6 % foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




25,0 % foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **24,5 %** foizga oshdi



Xususiy korxonalar



2020-y.




4,5 % foizga oshdi






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021 - yilning 1 - noyabr holatiga ko'ra 3.8 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 mingtaga yoki 12,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 mingtaga yoki 13,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 - yilning yanvar - oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 387 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 95 taga yoki 1,9 % ga kamayganini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2021 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2021 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021 yil 1 - noyabr holatiga ko'ra 8,1 ming tani tashkil etib, ulardan 7,9 mingtasi yoki 96,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1,1 mingtaga yoki 17,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 - yilning yanvar - oktabr oylarida 1 236 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar - oktabr oylarida, birlikda)



**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	1419	578	841
Qozog'iston Respublikasi	769	313	456
Ozarbayjon Respublikasi	168	56	112
Ukraina Respublikasi	128	66	62
Qirg'iz Respublikasi	128	51	77
Tojikiston Respublikasi	93	35	58
Turkmaniston Respublikasi	60	21	39
Belarus Respublikasi	67	32	35
Armaniston Respublikasi	26	17	9
Moldova Respublikasi	18	6	12

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2021 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 18,0 %, Qozog'iston Respublikasi 9,6 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,14 %, Qirg'iz Respublikasi 1,4 % va Tojikiston Respublikalari 1,2 % ga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

14


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent shahri	7 918	3 083	4 835
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	259	86	173
Bektemir	174	92	82
Yunusobod	982	399	583
Mirzo Ulug'bek	1 041	416	625
Mirobod	1 353	418	935
Shayxontohur	538	245	293
Olmazor	425	215	210
Sirg'ali	266	125	141
Yakkasaroy	1 299	447	852
Yashnobod	622	276	346
Yangihayot	100	48	52
Chilonzor	859	316	543

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 353 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,1 %), Yakkasaroy – 1 299 ta (16,2 %), Mirzo Ulig'bek – 1 041 ta (15,5 %) hamda Yunusobod tumanlarida 982 tani (12,5 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Uchtepa – 259 ta (3,2 %), Bektemir 174 ta (2,2 %) hamda Yangihayot 100 tani (1,2 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

15





2021 - yil 1 - noyabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (13,0 %), Chilonzor – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,2 %), Olmazor – (10,2 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (9,0 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,4 %), Yashnobod – (7,9 %), Sirg'ali – (4,9 %), Bektemir – (2,3 %) hamda Yangiheyot tumanlarida (1,9 %) tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021 - yil yanvar - oktabr oylarida, birlikda)

2021 yil yanvar - oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,8 %), Yunusobod – (12,0 %), Mirzo Ulug'bek – (11,7 %), Olmazor – (10,0 %), Shayxontohur – (9,6 %), Uchtepa – (8,7 %), Yashnobod – (8,8 %), Mirobod – (8,0 %), Yakkasaroy – (7,6 %), Sirg'ali – (5,8 %), Bektemir – (2,0 %) hamda Yangiheyot tumanlarida (3,0 %) tashkil etgan.







2021 - yilning yanvar - oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Yashnobod – (12,1 %), Sirg'ali – (11,2 %), Yunusobod – (12,0%), Mirzo Ulug'bek – (10,6 %), Uchtepa – (9,4 %), Olmazor – (10,6 %), Shayxontohur – (8,0 %), Yangihayot – (8,4 %), Chilonzor – (6,4 %), Yakkasaroy – (5,6 %), Mirobod – (4,1 %) hamda Bektemir tumanlarida (1,9 %) tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021 - yilning yanvar - oktabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
tel.: 71 203-88-31